

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XIZMAT KO'RSATISH SOHALARIDA INNOVATSION RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI VA AHAMIYATI

SamDUKF asissenti **A.Sh.Xasanov**

SamDYKF talabasi **Saidmurodov Zaynobiddin**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14533368>

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasining mamlakatlar milliy iqtisodiyotlari tarkibining o'zgarishi hamda iqtisodiy faoliyatning barcha yo'nalishlarini transformatsiyalashishiga, raqamli iqtisodiyotning raqamli axborot va bilimlar ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida tavsiflangan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, iqtisodiy rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, raqamli xizmatlar, YAIM, iqtisodiy o'sish. Innovatsiya.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonida xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini muntazam ravishda barqaror iqtisodiy rivojlanishi ularning xo'jalik faoliyati intensivligini ta'minlashning muhim omili hisoblangan iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni zarurat etmoqda. Ushbu jarayonda xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatlari samaradorligini oshirish mexanizmi bilan bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish intensivligini ta'minlash, soha korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish, iqtisodiy resurslardan tejimli foydalanish, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga erishish, ishlab chiqarilgan xizmatlar sifatini va uning natijadorligini ta'minlash, xizmatlar iste'molchilarining ehtiyojlarini to'liq qondirish vazifalari sohaning o'ziga xos muammolaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish korxonalarining xalqaro bozordagi xizmatlar sifatini oshirish va xizmatlar eksportini ko'paytirish mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Jahonda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanib borishi mamlakatlar milliy iqtisodiyotlari tarkibining o'zgarishi hamda iqtisodiy faoliyatning barcha yo'nalishlarini transformatsiyalashishiga olib kelmoqda.

Jahonda xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirish borasidagi tajribalar negizida servis korxonalari faoliyati samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, xizmatlar raqobatbardoshligini ta'minlash, xizmat ko'rsatish jarayonlarini modernizatsiyalash va intensivligini ta'minlash, korxonalar faoliyati rivojlanishini strategik rejalashtirish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshqarishning samarali usullarini joriy etish, xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish kabi ilmiy muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF5813-son «Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» va 2021 yil 30 sentyabrdagi PF-6318-son «Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Xizmat ko'rsatishning faoliyat turlarining muntazam kengayib borayotganligi xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining aniq chegaralarini belgilashda murakkablikni yuzaga keltirmoqda. Haqiqatdan ham ushbu faoliyatning kengayib borishi iqtisodiyotning ba'zi sohalarida asosiy bo'ladi, qolganlarida esa mazkur faoliyat qisman ishtirok etadi. Shunga ko'ra, xizmatlar sohasining asosiy jihatlaridan biri, uning turli xilligi, statistika uchun xizmatlar chegarasini belgilash ancha dolzarb hioblanadi, chunki ushbu voqiylikni o'rganishning muayyan darajada noaniqligi milliy iqtisodiyot rivojlanishida bevosita shakllanadi, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o'sish natijalari va aholi turmush farovonligi, yaxlit iqtisodiy faoliyat turlari, iqtisodiy jarayonlar hamda iqtisodiyotning ba'zi tarmoqlari va hududlar bo'yicha statistik axborotlarning integrasiyalashishi asosida mamlakatlar reytingi baholanadi.

Tadqiqotlar shundan dalolat bermoqdaki, agarda xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi oltmish besh foizdan kam bo'lsa, bunday davlat rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritilmaydi. Bu esa hozirgi zamon milliy va jahon iqtisodiyotida asosiy makroiqtisodiy tenglik sifatida xizmat ko'rsatish va moddiy ishlab chiqarish sohalarining nisbati bilan belgilanadi. Xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsuloti tarkibida ahamiyatli ulushga egadir.

Xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha ko'plab tarmoqlar uzoq davrda iqtisodiyotning rivojlanishi uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ushbu soha mamlakatning ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida o'ziga xos «lokomotiv»ga aylandi. Bu yerda gap birinchi o'rinda fan-texnika va ilmiy xizmatlar ko'rsatish, ta'lim, turli-tuman kasbiy xizmatlar, sog'liqni saqlash, aloqa va axborot xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida boradi. Garchi, ilgorigidek iqtisodiyotda hali ham xizmatlar sohasining yetarlicha an'anaviy bo'lgan moliya, savdo, shaxsiy xizmatlar kabilar muhim rol o'ynasada, XXI asr boshlarining o'ziga xosligi shundan iboratki, ham iqtisodiyot, ham jamiyat uchun xizmatlar sohasining yangi tarmoqlari guruhining ahamiyati ortib bormoqda.

Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasida samarali xo'jalik yuritishni tashkil etish industrial tarmoqlar faoliyatiga nisbatan keng miqyosda tadqiq etilgan bo'lib, bunda faoliyatni rivojlantirish jamiyatda odamlarning turmush farovonligini ta'minlash, xizmat ko'rsatish jarayonlarining innovatsionligini oshirish hamda yuqori texnologik sig'imga ega iqtisodiyotni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida raqamli iqtisodiyotning o'rni alohida bo'lib hisoblanadi. Innovatsion yuqori samaradorlikka ega bo'lgan texnika - texnologiyalardan barcha tarmoqlar va sohalarda yoppasiga foydalana boshladik. Bu esa mamlakatlarning milliy iqtisodiyot tizimini raqamli iqtisodiyot shakliga olib keldi. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi xizmatlar sohasini, raqamli xizmatlar sohasi atamasi bilan atash kerak ekanligini ko'rsatmoqda. Shu sababli bizlar har ikkala iqtisodiy atamaga nazariy jihatdan to'xtalish kerak deb hisoblaymiz.

Raqamli iqtisodiyot ko'p qirrali faoliyat bo'lib, unda raqamli axborot va bilimlar ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida qo'llaniladi, zaruriy faoliyat maydoni tariqasida zamonaviy axborot tarmog'i iqtisodiyot strukturasini optimallashtirish va unumdorlikni oshirishning yetakchi omili tariqasida axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali qo'llaniladi.

Raqamli iqtisodiyot – bu jamiyat ne’matlarini ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish jarayonlarida elektron hamda axborotkommunikatsion texnologiyalarini keng joriy etishni ko’zda tutadigan insonning xo’jalik faoliyatini tadqiq etuvchi fandır. Raqamli iqtisodiyot atamasi ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne’matlarining ustuvor o’rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu o’ziga hos nazariya bo’lib, uning o’rganish ob’ekti, axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot nazariyasi o’z rivojlanishining boshlang’ich davridadir, chunki sivilizatsiyaning raqamli axborot bosqichiga o’tishi bir necha o’n yil avvalgina boshlangan. “Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Kastels tomonidan kiritilgan. Bu borada u o’zining “Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat” nomli uch jildli monografiyasini chop etgan. Ilmiy adabiyotlarda hozirgi zamon “Yangi raqamli iqtisodiyoti” turli xil atamalar bilan nomlanadi. Masalan, “Postindustrial iqtisodiyot” (D.Bell), “Axborotlashgan iqtisodiyot” (O.Toffler), “Megaiqtisodiyot” (V.Kuvaldin), “Axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot” (I.Niiriluto), “Texnoiqtisodiyot yoki raqamli iqtisodiyot” (B.Geys), “Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot” (D.Tapskott).

Raqamli xizmatlar – bu insonlarning turli talab, xohish va istaklarini qondirish maqsadida, yashash sharoitini yaxshilashga ko’maklashadigan, kundalik vositalar yordamida texnika va texnologiyalarga asoslangan xizmat ko’rsatishning yuqori zamonaviy shaklidir.

Ko’plab rivojlangan mamlakatlar ro’y berishi lozim bo’lgan o’zgarishlar muqarrarligini tushunib, iqtisodiyotni raqamlashtirish tomon harakatni ongli ravishda boshladi. Bu yo’nalishni birinchilardan bo’lib ma’lum qilgan AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya hamda Xitoy bugungi kunda raqamli poygada norasmiy yetakchilar sanaladi. Ulardan keyingi o’rinlarda Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Avstraliya, Belarus va boshqalar turadi. Raqamlashtirish jarayonining ba’zi yetakchi mamlakatlari esa qarama-qarshi yondashuvlarni, xususan, AQSH bozor yo’nalishini, Xitoy esa rejali iqtisodiyotni tanlab olgan. Qolgan mamlakatlar ma’lum bir oraliq variantlarga rioya qiladi.

Raqamli iqtisodiyot platformalari tuzishda rivojlangan davlatlar transport, telekommunikatsiya, energetika, ma’lumotlarni qayta ishlash, sog’liqni saqlash, dori-darmonlar logistikasi, turizm, tashqi iqtisodiy faoliyat, ko’chmas mulk va ishlab chiqarish yo’nalishlariga e’tibor qaratmoqda.

Aynan shu sohalarning rivojlanishi infratuzilma hamda texnologik bazis yaratishga imkon beradi, ularni boshqa sohalarga ko’chirgan holda O’zbekiston yetuk raqamli iqtisodiyotni maksimal darajada tez rivojlantirishi mumkin. Ilg’or mamlakatlar raqamli iqtisodiyoti ko’plab dasturlari (AQSH, Avstriya, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va boshqalar) asosiy e’tiborni «raqamli tibbiyot» hamda «aqlli shahar» ijtimoiy yo’nalishlariga qaratmoqda. «Raqamli tibbiyot» va «aqlli shahar» ijtimoiy loyihalarini amalga oshirish ko’proq murakkablik hamda xilma-xillikni talab qiladi va bunday loyihalar keng xalq ommasi tomonidan e’tirof etiladi.

Xulosa va takliflar. Jahon bankining «Raqamli dividendlar» nomli tadqiqoti natijalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarb va muhimligini ko’rsatdi. Xususan, internet tezligining 10 foizga o’sishi, mamlakat YAIMning

o'sishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 1,21 foizni, rivojlanayotgan davlatlarda 1,38 foizni tashkil etayotir. Demak, internet tezligi ikki barobarga oshadigan bo'lsa, YAIM hajmining qariyb 15 foizga oshishiga erishish mumkin. Jahonda amalga oshirilayotgan globallashuv sharoitida tashqi migratsiya, xalqaro savdo va kapitallar harakati, turizm, xorijiy investitsiyalar, AKT rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etadi.

References:

1. Burmenko T. D. Sfera uslug: ekonomika: uchebnoye posobiye / T.D. Burmenko, N.N. Danilenko, T. A. Turenko; pod red. T.D. Burmenko. - M.: KNORUS, 2007. – 328 s. – S. 64-65.
2. Hov big is China's Digital economy? Bruegel, Vorking Paper, Issue 04, 17 May, 2018.
3. S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullayev, G.R. Baltabayeva.
3. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "IqtisodMoliya" nashriyoti, 2019, 8 bet.
4. Абрамешин, А.Йе., Воронина, Т.П., Молчанова, О.П., Тихонова, Йе.А., Шленов, Ю.В. Инновационный менеджмент: Учебник для вузов / А.Йе. Абрамешин, Т.П. Воронина, О.П. Молчанова, Йе.А. Тихонова, Ю.В. Шленов // Под редакцией дра экон. наук, проф. О.П. Молчановой. М.: Вита-Пресс, 2001. - 272 с.
5. Семенова, А.А. Инновационно-инвестиционный менеджмент: учеб. пособие / А. А. Семенова, И. И. Марушак: под общ. ред. М. И. Лешенко; Федер. агенство по образованию, Моск. гос. индустр. ун-т. -М. : Изд-во МГИУ, 2007. - 249 с.
6. Вареников, В.А. Управление инновационной активностью предприятия с позиции индикативного подхода / В.А. Вареников // Скиэнкес оф Эуропе. - 2017. - № 14-3 (14). - С. 11-14.
7. Молчанова, В.А. Горизонтальное управление как косвенный метод стимулирования инноваций в сфере услуг / В.А. Молчанова // Креативная экономика. - 2014. - № 12 (96). - С. 128-140.
8. Musayeva, S. I. (2024). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF INTERACTIVE METHODS INTRODUCING THE CLT (COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING) APPROACH. World Scientific Research Journal, 32(1), 217-219.
9. Карпенко, А.В. Управление инновационной активностью / А.В. Карпенко // Наука и производство Урала. - 2015. - № 11. - С. 156-159.